

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 1899,5 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 29,3 ming kishiga yoki 1,6 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 706,1 ming kishini (jami aholi sonida qo'shilganda ulushi 37,2 %), qishloq aholisi soni 1193,4 ming kishini (62,8 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2018 yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **29,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **40,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **8,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **14,1 mingta nikoh** va **1,6 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Buxoro viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o`tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi
 (2018-2019 yillar 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	2018 yil	2019 yil*	O`tgan yilga nisbatan o'sish sur`ti, %
Buxoro viloyati	1870,2	1899,5	101,6
Buxoro sh.	276,4	278,1	100,6
Kogon sh.	60,2	60,7	100,8
tumanlar:			
Olot	95,7	97,4	101,8
Buxoro	159,9	163,0	101,9
Vobkent	134,6	136,9	101,7
G`ijduvon	299,3	304,0	101,6
Kogon	74,4	76,2	102,4
Qorako'l	158,4	161,2	101,8
Qorovulbozor	17,8	18,0	101,1
Peshko'	117,9	120,2	102,0
Romitan	136,3	138,6	101,7
Jondor	167,8	171,1	102,0
Shofirkon	171,5	174,1	101,5


*) dastlabki ma`lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 dekabr holatiga eng ko'p aholi soni G`ijduvon tumanida 304,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,0 %ni) va Buxoro shahrida 278,0 ming kishini(14,6 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 60,7 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tumanida 18,0 ming kishini (1,0 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 2,4%ni, Peshko` va SHofirkon tumanlarda 2,0 %ni, Buxoro tumanida 1,9%ni,Qorako'l va Olot tumanlaridada 1,8%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Buxoro shahrida 0,6% ni va Kogon shahrida 0,8 %ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)




Demografik holat

Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	erkak	ayol
Buxoro viloyati	951,2	948,3
Buxoro sh.	138,0	140,1
Kogon sh.	29,5	31,2
<i>tumanlar:</i>		
Olot	48,8	48,6
Buxoro	81,8	81,2
Vobkent	68,8	68,1
G'ijduvon	155,6	148,4
Kogon	37,7	38,5
Qorako'l	79,6	81,6
Qorovulbozor	8,9	9,1
Peshku	60,1	60,1
Romitan	70,2	68,4
Jondor	84,4	86,7
Shofirkon	87,7	86,3

Hududlar kesimida aholi zichligi (2019 yil 1 yanvar holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 40,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,3 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega ko`paygan (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 20,0 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Jondor tumanida (20,7 promilledan 23,4 promillega), Qorako'l tumanida (21,0 promilledan 22,9 promillega) va Shofirkon tumanida (19,9 promilledan 21,7 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Qorovulbozor (20,8 promilledan 20,3 promillega) va Kogon (23,8 promilledan 20,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bolalar:
18,9
ming nafar

O'g'il bolalar:
21,3
ming nafar

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



**Buxoro viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi
(yanvar-dekabr)**

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	37 237	40222	108,0
Buxoro sh.	4 419	4874	110,3
Kogon sh.	1 017	1098	108,0
<i>tumanlar:</i>			
Olot	2 002	2121	105,9
Buxoro	3 023	3125	103,4
Vobkent	2 731	2973	108,9
G'ijduvon	6 263	6743	107,7
Kogon	1 747	1774	101,5
Qorako'l	3 304	3660	110,8
Qorovulbozor	363	363	100,0
Peshku	2 577	2727	105,8
Romitan	2 942	3057	103,9
Jondor	3 451	3960	114,7
Shofirkon	3 398	3747	110,3

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 8,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promille ni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,5 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Olot (4,8 promilledan 4,1 promillega) Kogon (5,2 promilledan 4,5 promillega), Romitan (4,3 promilledan 3,7 promillega) Peshko` (4,1 promilledan 3,6 promillega), Qorako'l (4,6 promilledan 4,0 promillega), Jondor (4,3 promilledan 3,9 promillega) tumanlarida kuza tilgan bo'lib aksincha Kogon shahar (5,2 promilledan 5,5 promillega) va Vobkent (4,2 promilledan 4,3 promillega) o'sish holati kuzatildi


Vafot etganlar



Erkaklar:
4,3 ming
kishi

Ayollar:
3,7 ming
kishi

Hududlar kesimida o`lganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



Demografik holat

Buxoro viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi (yanvar-dekabr)


	2017 y.	2018 y.	O`sish sur`ati %da
Buxoro viloyati	8 379	7984	95,3
Buxoro sh.	1 358	1376	101,3
Kogon sh.	314	333	106,1
<i>tumanlar:</i>			
Olot	454	396	87,2
Buxoro	636	603	94,8
Vobkent	556	587	105,6
G`ijduvon	1 380	1332	96,5
Kogon	381	340	89,2
Qorako'l	716	641	89,5
Qorovulbozor	50	57	114,0
Peshku	478	425	88,9
Romitan	581	511	88,0
Jondor	708	659	93,1
Shofirkon	767	724	94,3

Demografik holat

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,2 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,9 %i o'simtalardan, 5,7 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,0 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 273 nafarni tashkil etib, ularning 52,4 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 11,1 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 14,2 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 11,1 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 9,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-dekabrn

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 32,3 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 3,4 ming kishiga (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 28,9 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
32,3 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 14,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,5 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan barcha hududlarda kamayish kuza-tilgan bo`lib asosan eng yuqori kamayish sur'atlari Qorovukbozor (75,8 %), Jondor (79,2 %), Olot (81,4 %), Shofirkon (83,8 %) vtumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo`lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kogon (112,7 %), Jondor (107,8 %) va Qorako'l (101,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



Demografik holat

Hududlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-dekabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	16 329	14134	86,6	1 822	1608	88,3
Buxoro sh.	2 309	2119	91,8	564	464	82,3
Kogon sh. tumanlar:	532	446	83,8	91	80	87,9
Olot	931	758	81,4	68	62	91,2
Buxoro	1 152	989	85,9	158	114	72,2
Vobkent	1 183	1067	90,2	102	78	76,5
G'ijduvon	2 694	2316	86,0	240	231	96,3
Kogon	597	587	98,3	79	89	112,7
Qorako'l	1 493	1361	91,2	107	109	101,9
Qorovulbozor	153	116	75,8	13	13	100,0
Peshku	1 066	899	84,3	85	67	78,8
Romitan	1 164	984	84,5	100	86	86,0
Jondor	1 465	1160	79,2	102	110	107,8
Shofirkon	1 590	1332	83,8	113	105	92,9

Migratsiya. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,1 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 9,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 2,9 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 2,2 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	6,8	6,1
Ko'chib ketganlar	9,0	9,0
Migratsiya saldosi	-2,2	-2,9

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Buxoro shahrida (minus 1,9 ming kishi), G`ijduvon tumanida (minus 0,7 ming kishi) qayd etildi.

■ 2017 yil yanvar-dekabr ■ 2018 yil yanvar-dekabr

